



SHAMSUDDIN SAMARQANDI IS A PROMINENT THEOLOGIAN IN THE FIELD OF KALĀM

Sunnatilla Bakhramov

Senior Researcher

Imam Maturidi International Research Center

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: The science of Kalam, Shamsuddin as-Samarkandi, scientific legacy, manuscript copy, manuscript libraries, al-Mu'taqad (The Doctrine or Belief), library catalog.

Received: 01.12.24

Accepted: 03.12.24

Published: 05.12.24

Abstract: This article reviews the scientific activities and written works of Shamsuddin Samarkandi. It analyzes the current location of the scientific heritage he left behind, the year of creation, and the authorship of these works. Although the scientist was active in the field of intellectual sciences, the article primarily focuses on his works related to the science of theology and aims to provide comprehensive information about them.

SHAMSUDDIN SAMARQANDIY KALOM ILMIDA O'Z O'RNIKA EGA MUTAKALLIM OLIM

Sunnatilla Bahromov

katta ilmiy xodim

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kalom ilmi, Shamsuddin Samarqandiy, ilmiy meros, qo'lyozma nusxasi, qo'lyozma saqlanadigan kutubxonalar, al-Mo'taqod, kutubxona katalogi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shamsuddin Samarqandiyning ilmiy faoliyati, yozgan asarlari o'r ganilgan. U qoldirgan ilmiy merosning hozirgi kunda qaysi kutubxonalarda saqlanishi, nechanchi yilda va kim tomonidan yozilgani tahlil qilingan. Olim aqliy ilmlar sohasida faoliyat olib borgan bo'lsada, asosan, kalom ilmiga doir asarlari jamlanib, ular haqida to'liq ma'lumot berishga harakat qilingan.

ШАМСУДДИН САМАРҚАНДИЙ — УЧЕНЫЙ, ЗАНЯВШИЙ СВОЕ МЕСТО В НАУКЕ КАЛАМ

Суннатилла Бахрамов

Старший научный сотрудник

Международного научно-исследовательского центра имама Матуриди

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Наука калам, Шамсуддин Самарканди, научное наследие, рукописная копия, рукописные библиотеки, Аль-Му‘тақад, Каталог библиотеки.

Аннотация: В данной статье исследуется научная деятельность Шамсуддина Самарканди, а также его письменные труды. Проанализировано, в каких библиотеках на сегодняшний день хранятся его научные наследия, в каком году и кем были написаны эти работы. Несмотря на то, что учёный занимался деятельностью в области национальных наук, основное внимание уделено его трудам, связанным с наукой калама, и попытке предоставить полную информацию о них.

KIRISH

Dunyoning ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlarida moturidiylik ta’limotining paydo bo‘lishi, uning tarixi, rivojlanish bosqichlari, falsaviy qarashlari, bilish nazariyasi, musulmonlar hayotida tutgan o‘rnini o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, XIII-XIV asrlarda moturidiylik ta’limoti rivojiga katta hissa qo‘sghan mutakallim olimlarning ilmiy merosini tadqiq etishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Aynan mana shu davrda yashab ijod qilgan alloma Shamsuddin Samarqandiyning hayoti va asarlarini o‘rganish, ilmiy merosi o‘rganilmay turgan ajdodimizning asari qolaversa, olimning o‘zi haqidagi ma’lumotlarni o‘rganib, tadqiq qilish hamda halqimizga shunday ajdodimiz bor ekanligi, yutimizdan har bir davrda shunday allomalar yetishib chiqqanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yosh avlodga yetkazish imkonini beradi.

Shamsuddin Muhammad ibn Ashraf Husayniy Samarqandiy falsafa, kalom, riyoziyot (hisob-kitob ilmi), borliq singari ilmlar borasida e’tirof qilingan bo‘lib, bugungi kunda dunyoning ko‘plab kutubxonalarida saqlanadigan bir qancha ilmiy asarlar yozib qoldirgan. Shamsuddin Samarqandiyning kalom, matematika va astronomiya, shuningdek, tafsir, bahs-munozara odobi kabi sohalarda yigirmadan ortiq asari mavjud. Uning tafsir ilmiga oid “as-Sahoif fi at-tafsir” asarini hisobga olmaganda, boshqa sohalardagi asarlarining deyarli barchasi hayotlik chog‘i yozib tugatilgan.

ASOSIY QISM

Shamsuddin Samarqandiy yozgan asarlarining yetarli darajada ekanligidan uni bir necha sinflarga ajratish imkoniyati paydo bo‘ladi. U turli sohalarda jumladan, kalom sohasida bir qancha asarlar yozib, o‘z davridagi tolibi ilmlarga bu borada ta’lim berish bilan shug‘ullangan. Quyida u tomonidan yozilgan kalom ilmiga doir asarlarini sanab o‘tamiz:

- “al-Ma’orif fi sharh as-sahoif” (Sahifalar sharhi borasida bilimlar) nomli asar. Olim o‘zining “as-Sahoif al-ilohiya” (Illohiy sahifalar) asariga sharh sifatida shu kitobni yozgan. Mutakallim olimning ushbu asari qolgan asarlariga qaraganda katta hajmga ega. Hoji Xalifa “Kashf az-zunun” asarida Samarqandiyning ushbu asariga to‘xtalib shunday degan: “al-Ma’orif fi sharh as-sahoif” asari “as-Sahoif”ning sharhi hisoblanib, Shamsuddin Muhammad Samarqandiy qalamiga mansubdir[1]”. Bundan tashqari bir qancha manbalarda, jumladan, Murtazo Zabidiyning (1145-1205/1732-1790) “Ithaf as-sada al-muttaqin bi sharh ihyo u’lum ad-din”[2] asarida, shuningdek Abdulg‘ani ibn Ismoil Nobulusiyning (1050-1143/1640-1731) “al-Hadiyat an-nadiya sharh at-toriyat al-Muhammadiya va as-siyra al-Ahmadiya”[3] hamda “Roihatu al-janna sharh izoat ad-dujuna fi aqoid ahli as-sunna”[4] singari asarlarida dalil keltirish o‘laroq olimning aynan mana shu asariga murojaat qilinganini ko‘rish mumkin.

Bevosita asar qo‘lyozma nusxasiga e’tibor qaratilsa, risola barcha kalom ilmiga doir asarlar singari hamd-u sano bilan boshlanib, so‘ng aqoid ilmining qadr-qimmati xususida so‘z borgan. Keyingi qatorlarda esa ushbu sharhning yozilishiga sabab sifatida o‘sha davr olimlarining “as-Sahoif al-ilohiya” asarini yanada yaxshiroq tushunish uchun muallifning o‘zidan sharh yozib berishini so‘ragani, olim esa bu iltimosga javoban shu asarni yozib, uni “al-Ma’orif fi sharh as-sahoif” nomlagani[5] to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Sharhning yozilish uslubiga nazar tashlansa, ayrim o‘rinlarda “as-Sahoif”ning izoh talab qiladigan bir necha so‘zлari sharhlangan bo‘lsa, aksar o‘rinlarda “dedi” (قال) iborasidan so‘ng sharhlanadigan jumlaning bir qismi keltirilgan va uning ortidan “aytaman” (أَتَمَانٌ) so‘zi bilan boshlangan sharhi bayon qilinganini ko‘rish mumkin. Sharhda qo‘llanilgan “dedi” va “aytaman” so‘zlarining har biri ajralib turishi uchun qizil siyohda ifodalangan. Har qanday sharh yozgan olim tabiiyki, biror masalani tushuntirish davomida o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan savolni o‘rtaga tashlab ortidan o‘zi uning javobini keltirib o‘tadi. Samarqandiy ham shu uslubdan foydalangan holda, deyarli har bir “aytaman” so‘zidan keyin “agar ... deyilsa” (فَإِنْ قِيلَ) yoki “agar ... desang” (فَإِنْ قُلْتَ) jumlalarini qo‘llagan va mana shu kalimalarning ustiga qizil siyoh bilan ajratuvchi belgi qo‘yan. Asarning so‘ngi sahifasida Samarqandiy uni qachon tamomlagani to‘g‘risidagi ma’lumot keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra sharh hijriy 705 yil robi’ al-oxir oyining so‘ngi kunlari, milodiy esa 1305 yil noyabr oyining o‘rtalarida yozib tugatilgan.

Bugungi kunda yurtimiz va dunyodagi ko‘plab qo‘lyozma saqlanadigan kutubxonalarda asarning 40 ga yaqin nusxalari saqlanadi. Quyida ularning ba’zilariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi: Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo‘lyozmalar institutida № A827 raqam ostida saqlanadigan asar nusxasi umumiy 137 sahifadan iborat bo‘lib, hijriy 716 yil shavvol oyida (1317 yil dekabr) Bahouddin Shamsuddin ibn Qivom tomonidan nasx xat turida yozilgan[6]. Saudiya Arabistonidagi kutubxonalarda asarning 23 nusxasi saqlanadi. Jumladan “Qirol Faysal nomidagi islom ilmlari tadqiqot markazi” kutubxonasida № 808-810, № 1247, № 8397-8401, № 8520-8523 va № 8685-8689 raqamlari ostida saqlanadigan nusxa, aynan, “al-Ma’orif fi sharh as-sahoif”ning qo‘lyozma nusxalari ekanligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari “imom Muhammad ibn Sa’ud islom universiteti”da № 7494 raqam ostida saqlanadigan bir nusxa, Madina shahrida joylashgan Orif Hikmat (عارف حکمت) kutubxonasidagi № 240, № 260, № 247-248 raqamlari ostida saqlanadigan to‘rt qo‘lyozma ham shu asar nusxalari hisoblanadi. Turkiyaning bir necha kutubxonalarida esa asarning 12 nusxasini uchratish mumkin. Jumladan, Fayzulloh Afandi kutubxonasining № 1141, 1142, 1143 raqamlari ostida saqlanadigan qo‘lyozmalar shu asarning, mos ravishda, hijriy 784, 787 va 765 yilda yozilgan nusxalaridir. Ko‘prulu kutubxonasidagi № 827-828 raqamlari ostida saqlanadigan qo‘lyozmalarga e’tibor qilinsa, biri Muhammad ibn Mavlono Nosiriddin Anqariy tomonidan hijriy 787 yil yozib tugatilgan, ikkinchisi undan avvalroq, hijriy 738 yil Ali ibn Ahmad nomli nosix tomonidan yozib tugallangan asar nusxalari ekanligini ko‘rish mumkin. Atif Afandi fondida ham asarning 2 nusxasi mavjud. Bular: № 1291 raqam ostida saqlanadigan, hijriy 726 yil Muhammad ibn Ali ibn Muhammad nomli nosix tomonidan nasx xat turida ko‘chirilgan nusxa, ikkinchisi № 1292 raqam ostida saqlanadigan, hijriy 741 yil Muhammad ibn Fath tomonidan nasx xat turida yozib tugatilgan nusxadir. Bundan tashqari Sulaymoniya kutubxonasida № 989 raqam ostida saqlanadigan, hijriy 775 yil Siroj ibn Ilyos Rumiy tomonidan nastaliq xat turida yozilgan nusxa, Jorulloh fondida № 1247 raqam ostida saqlanadigan, hijriy 726 yil Yusuf ibn Muhammad ibn Ibrohim tomonidan nasx xat turida yozilgan nusxa, Shahid Ali Posho kutubxonasida № 1651 raqam ostida saqlanadigan, Alouddin Yahyo ibn Abdullatif ibn Yahyo tomonidan yozilgan nusxa, As’ad Afandi kutubxonasida saqlanadigan № 1253 va № 1272 raqam ostida saqlanadigan qo‘lyozmalar aynan Samarqandiyning “al-Ma’orif” nomli sharhi hisoblanadi. Sulaymoniya kutubxonasining Laleli fondida № 2432 raqam ostida saqlanadigan jamlanma esa to‘lig‘icha Shamsuddin Samarqandiy asarlariga bag‘ishlanganini ko‘rish mumkin. Ushbu jamlanma hijriy 712 yil safar oyining o‘rtalari, milodiy 1312 yil iyun oyining o‘rtalarida Umar G‘oziy Samarqandiy tomonidan nusxa ko‘chirib tugatilgan. Suriya, Hindiston va Buyuk Britaniya kutubxonalarida ham asarning bir necha nusxalari saqlanib kelinmoqda. Bundan tashqari Quvaytdagi qo‘lyozma va adabiyot fakulteti kutubxonasida ham № 471 raqam ostida saqlanadigan “al-Ma’orif” nusxasi ham hozirgi kunda ilmiy

tadqiqotchilar tomonidan o'rganiladi. Shuningdek, AQSHning Nyu Jersiy shtatida joylashgan Princeton universiteti qo'lyozmalar saqlanadigan kutubxonasida ham ushbu asar nusxasini uchratish mumkin. Kutubxona fondida № 1485 raqam ostida saqlanadigan "al-Ma'orif fi sharh as-sahoif" asari 108 sahifadan iborat bo'lib, 705/1305 yilda yozilgan nusxa hisoblanadi. Kutubxona katalogida kelgan ma'lumotlarga ko'ra, asar muallifi 690 yildan keyin vafot etgan, asar nusxasi esa Muhammad Husayniy tomonidan ko'chirilgan. E'tibor qilinadigan bo'lsa, bu nusxani ko'chirgan nosixning ismi Shamsuddin Samarqandiy ismiga to'liq mos keladi. Samarqandiyning 690 yildan keyin emas aksincha, 722 yil vafot topgani inobatga olinadigan bo'lsa, ushbu nusxani aynan olimning o'zi tomonidan yozilgan nusxa deyish mumkin.

Bu asar hozirda nafaqat qo'lyozma holida saqlanadi, balki uning ustida ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan. Buning natijasida 2012 yil Umon sultonligidagi Xalqaro islom ilmlari universiteti doktoranti Abdurrahmon Sulaymon Abu Sualiq tomonidan ushbu sharh yuzasidan doktorlik ishi amalga oshirilgan. Bundan tashqari Misrlik ikki olim, Abdulloh Muhammad Abdulloh Ismoil va Nazir Muhammad Nazir Ayyod tomonidan 2 jilddan iborat bo'lgan katta hajmdagi tahqiqi amalga oshirilib, 2015 yil Qohira shahrda bosmadan chiqarilgan;

- "al-Mo'taqod" (e'tiqodlar) nomli asari. Bu asar ham hajm e'tiboridan Samarqandiy asarlari orasida davtlabki qatorlarda turadi. Ushbu asar bir qarashda "as-Sahoif al-ilohiya"ning qisqacha xulosasi bo'lib ko'rindi, biroq unga batafsil kirishilganida uning tarkibida yangi-yangi mantiqiy mavzular borligi, ba'zi teologik mavzularga ayrim qo'shimchalar kiritilganini ko'rish mumkin. Asar qo'lyozmasining ilk sahifasida: "(Bundan) avval "al-Qistos fi al-mantiq" va "as-Sahoif fi al-kalima al-ilohiya" kitobini tasnif qilganman" وقد صنفت فيما مضى كتاب القسطاس في المنطق () [7]، deya ifodalangan jumla, uning Shamsuddin Samarqandiy qalamiga mansub ekanligiga ishonchli dalil bo'ladi.

Ushbu asarning dunyo kutubxonalarida bir qancha nusxalari mavjud bo'lib, ularning askar qismi Turkiyadagi kutubxonalar ulushiga to'g'ri keladi. Ular jumlasiga Sulaymoniya kutubxonasining Laleli fondida № 2432 raqam ostida saqlanadigan nusxa, Atif Afandi fondida № 1369 raqami ostida saqlanadigan nusxa, Jorulloh fondidagi № 1838 raqam ostida saqlanadigan nusxa, Qasidachizoda fondining № 145 raqami ostida saqlanadigan nusxa hamda Otaturk kutubxonasidagi № 629 raqami ostida saqlanadigan nusxalarni kiritish mumkin. Bundan tashqari Saudiya Arabistonining Madina shahrda joylashgan Orif Hikmat kutubxonasining № 206 raqam ostida saqlanadigan qo'lyozma ham aynan Samarqandiyning "al-Mo'taqod" nomli asari hisoblanadi.

Sanab o'tilgan qo'lyozma nusxalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu nusxalarning barchasi asosan hijriy 705-715, milodiy 1305-1315 yillar orasida yozilgan. Ular orasidan faqat Jorulloh fondida saqlanadigan nusxada ba'zi so'zlarning tushib qolgani, ayrim sahifalardagi siyohlarning

o'chib ketgani[8] tufayli uning qaysi asar va kimga tegishli ekanligini aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Ammo asarning boshqa kutubxonalardagi nusxalari bilan solishtirib chiqilsa, har bir qatori bir-biriga to'laqonli mos kelishi ko'zga tashlanadi. Qo'lyozma nusxalarni qiyosiy o'rganish natijasida Jorulloh fondining № 1838 raqam ostida saqlanadigan qo'lyozma asarni Shamsuddin Samarqandiyning "al-Mo'taqod"i deb aytish xato bo'lmaydi. Sulaymoniya kutubxonasining Laleli fondida saqlanadigan nusxaning ham kim tomonidan va qayerda yozilgani to'liq bayon qilingan. Jumladan, asar nusxasida kelgan ma'lumotlarga ko'ra, bu qo'lyozma Muhammad ibn Mahmud ibn Umar G'oziy Samarqandiy tomonidan 709/1309 yil nusxa ko'chirilgan, 711/1311 yilda Ho'jand shahridagi "Shamsuddin" madrasasida Samarqandiyning nusxasi bilan solishtirib qayta to'g'irlangan[9].

Bevosita asar mazmuniga e'tibor qaratilsa, Samarqandiy uni uch asosiy qismga bo'lib, har bir qismni "lavha" (اللَّوْح) so'zi bilan ifodalagan. Olim birinchi lavhada mantiqiy mavzularni yoritishga harakat qilgan. Ikkinci lavhada esa kalom va mantiq ilmiga tegishli boshlang'ich mavzularni bayon qilgan. Samarqandiy ushbu lavhani muqaddima va uch bo'limga ajratish orqali kengroq tushuntirgan. Asarning so'ngi uchinchi lavhasi e'tiqodiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, u o'z navbatida kirish hamda oltita aqidaviy masaladan iborat.

Shamsuddin Samarqandiyning "al-Mo'taqod" asari hozirgi kunda turk olimlari tomonidan ikkiga bo'lib o'rganilgan. Xususan, asarning dastlabki mantiq qismi Mehmet Kadri Karabala ismli tadqiqotchi tomonidan o'rganilgan. Bundan tashqari yana bir turk tadqiqotchilari, Ismoil Yoruk va Ismoil Shik tomonidan asarning qolgan ikki lavhasi tadqiq qilingan bo'lib, 2011 yil turk tilida "Islam Inanch Ilkeleri" nomli risola holida chop etilgan;

- Hajmi yuqorida nomi tilga olingan asarlardan kichik bo'lgan "al-Anvar al-ilohiya"[10] (Illohiy nurlar) asari. Samarqandiy asar muqaddimasida uning yozilish sababi xususida so'z yuritadi. Darhaqiqat, unda kelgan ma'lumotlarga ko'ra zamonasining hukmdori olimdan mantiq ilmini ham o'z ichiga olgan, shu bilan birgalikda faylasuflarning qarashlarini tanqid qiladigan kalom ilmiga doir kitob yozishni so'ragani, Samarqandiy esa bu talabga binoan aynan mana shu asarni yozib, unga "al-Anvar al-ilohiya" deb nom bergenini aytadi[11].

Asarning mazmuniga e'tibor qilinsa, uning aqidaviy masalalardan tashqari mantiq hamda munozara ilmini ham o'z ichiga olgani ko'zga tashlanadi. Bu jihatdan "al-Anvar al-ilohiya" aksar hollarda mantiqiy masalalarni o'z ichiga olgan Fahriddin Roziydan (544-604/1149-1207) keyingi davr aqida matnlaridan farq qiladi. Asarning mana shu jihatni uning mazmun jihatidan boshqa asarlardan ajralib turadigan o'ziga xos jihatni hisoblanadi. Samarqandiy bu asari orqali ilohiyot masalalarini tahlil qilish nuqtai nazaridan avvalgi olimlar an'anasiga o'ziga xos hissa qo'shishga harakat qilgani e'tiborga molik. Darhaqiqat, "Bizning nuqtai nazarimizdan shunday" (عندنا كذا)

kabi iboralar bilan ko‘p masalalarda o‘z fikrini qat’iy ifodalaydi. Bundan tashqari, asar ko‘plab olimlarning fikrlarini o‘z ichiga olib, ularni diqqat bilan tahlil qiladi.

Asar tuzilishiga to‘xtalinadigan bo‘lsa, asar ham xuddi “al-Mo‘takadot” singari “mezon” (الميزان), “mabadiy” hamda “masoil” (المسائل) ko‘rinishida tasniflangan[12]. Shuning uchun ushbu asarni faqat ilohiyot yoki mantiq kitobi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Muallif asarni uchta asosiy qismga bo‘lib, ularni “muqaddima” (مطلع) deb nomlagan. Birinchi bo‘limda “mezon” nomi ostida mantiq va babs-munoza ilmi xususida so‘z yuritilgan bo‘lsa, qolgan ikki bo‘limlarida “as-Sahoif al-ilohiya”da qo‘llanilgan ba’zi masalalar qisman takror qo‘llanilgan bo‘lib, faqat “Qadar” hamda “Bandalarning fe’llari” kabi mavzularda bir oz qo‘shimchalar kiritilgan[13]. Muallif har bir “muqaddima”ni “ishroq” (إشراق) deb atalgan sarlavhalarga ajratgan, o‘z navbatida har bir “ishroq” “lam’a” (اللمعة) – “qisqa ko‘rinish”) deb atalgan kichik sarlavhalarga bo‘lingan.

Tadqiqot natijasida qo‘lyozma saqlanadigan kutubxonalarda asarning ikki dona nusxasi mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Birinchisi, Sulaymoniya kutubxonasining Laleli fondida № 2432 raqam ostida saqlanadigan, tartib e’tiboridan, 6 bo‘lib ro‘yhatga olingan qo‘lyozma. Nusxa jamlanmadagi boshqa asarlar singari 706 yil Muhammad ibn Muhammad ibn Umar G‘oziy tomonidan nusxa ko‘chirilgan. Bundan tashqari Turkiya kutubxonalarida yana bir nusxasi mavjud bo‘lib, hozirga qadar biron-bir tadqiqotchi bu haqida ma’lumot bermagan. Murod Mulla fondida № 1394 raqam ostida saqlanadigan qo‘lyozma ko‘zdan kechirilganida, tarkibida imom Tahoviy (238-321/852-933) asarining “an-Nur al-lami’ a va al-burhan as-sati’ a” (النور اللامع والبرهان الساطع) nomli sharhi, Nuriddin Sobuniy (vaf. 580/1184) qalamiga mansub “Kifoyatu al-hidoya” (كفاية الهدایة) asari va yana bir qancha mashhur olimlarning asarlari bo‘lgan ushbu jamlanmada uchinchi tartib ketma-ketligidagi asar aynan “al-Anvar al-ilohiya” ekanligi ko‘zga tashlanadi. Ushbu jamlanma umumiy hisobda 570 varoqdan iborat bo‘lib, Samarqandiy qalamiga mansub asar majmuuning 260a-307a sahifalarida joylashgan. Ammo asar so‘ngida uning kim tomonidan nusxa ko‘chirilgani, yozilgan sanasi to‘g‘risda hech qanday ma’lumot kelmagan[14]. Hozirgi kunda xorijlik tadqiqotchilar tomonidan Samarqandiyning “al-Anvar al-ilohiya” asari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilgan. Bunga turk tadqiqotchisi Salima Yanmaz tomonidan “el-Envâru'l-ilâhiyye” Adlı Eseri Bağlamında Şemseddin es-Semerkandî’nin Kelâmî Görüşleri” (“al-Anvar al-ilohiya” nomli asari mazmunida Shamsuddin Samarqandiyning aqidaviy qarashlari) nomli ilmiy ishini misol qilib keltirish mumkin.

- Yuqoridagi asar ikkinchi qismining “Sharhu al-lam’at ar-robi’ a min kitab al-anvar al-ilohiya” (Illohiy nurlar kitobidan to‘rtinchi lam’ a sharhi) nomli sharhi. Ushbu asarda asosan “al-Anvar al-ilohiya” kitobidagi “Allohning yagonaligi” hamda “Muhammad alayhissalomning

payg‘ambar ekanliklari isboti” singari mavzular sharhlangan. Hozirgi kunda bu asar Sulaymoniya kutubxonasining Laleli fondida № 2432 raqam ostida saqlanadi. Asar bu jamlanmaning so‘ngi, tartib jihatidan sakkizinchasi hisoblanib, qo‘lyozmaning 163b sahifasidan kitobning so‘ngi betigacha bo‘lgan qismini egallagan. Qo‘lyozma so‘ngida kelgan ma’lumotga ko‘ra, ushbu asar 715 yil yozilganini ko‘rish mumkin[16]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deyarli hech bir tabaqot va tarojim asarlarida bu asar xususida so‘z yuritilmagan.

- Olimning asarlari orasida hajm jihatidan eng kichigi hisoblangan “ar-Risala ash-sharifa” (Qimmatli risola) nomli risoladir. Ikki sahifadan iborat bo‘lgan ushbu risolada Samarqandiy ahli sunna val jamoa mazhabiga doir uch masala: “Alloh taoloning sifatlari; u Zotning ayni o‘zi ham, zotidan boshqa ham emas”, “ism va musammo (nomlanmish)” va “bo‘linmaydigan zarra” (al-juz’u al-laziy la yatajazza) xususida so‘z yuritadi.

Olimning bu risolasi muqaddima, uch asosiy masala hamda xotimadan iborat. Muqaddimada boshqa asarlar singari basmala, hamd va salovatdan keyin risola nima uchun yozilganligi va kimga bag‘ishlanganligi tushuntirilgan. Asosiy qismda yuqorida tilga olingan uch masala tartib bilan muhokama qilingan bo‘lsa, xulosa ixchamgina duo bilan tamomlangan.

Samarqandiying ilohiyot, mantiq va astronomiyaga oid bir necha kitoblarini o‘z ichiga olgan Laleli fondidagi № 2432 raqam ostida saqlanadigan majmuada ushbu asar “ar-Risala ash-sharifa” deb nomlangan[17]. Sulaymoniya kutubxonasining Jorulloh fondida № 1247 raqam ostida saqlanadigan nusxada esa faqat “ar-Risala” nomi bilan tilga olingan[18]. Bundan tashqari, aynan mana shu nusxa kutubxona katalog ma’lumotlarida “Risalatu al-aqoid” nomi bilan ro‘yxatga olingan. Bundan tashqari G‘ulomrizo Dodxoh tomonidan tadqiq qilingan Samarqandiying “Ilm al-afaq va al-anfus” nomli asari muqaddimasida “Bayonu mazahib ahli sunna” nomi tilga olinadi[19]. Ushbu tadqiqot ko‘zdan kechirilganda, G‘ulomrizo Dodxoh nomini tilga olgan asar uch masala xususida so‘z yuritiladigan yuqoridagi asarning ayni o‘zi ekanligi ayon bo‘ldi.

Samarqandiy haqida cheklangan ma’lumotni o‘z ichiga olgan tarjimai hol kitoblarida uning bunday asari xususida biror so‘z qayd qilinmagan. Buning sababini uning hayoti haqidagi cheklangan ma’lumotlarning natijasi sifatida qabul qilish mumkin. Laleli fondida saqlanadigan asar nusxasini ko‘zdan kechirgan kishi, bir qarashda, 2 sahifalik bu risolani o‘zidan keyin kelgan “as-Sahoif al-ilohiya” nomli asarning muqaddimasi degan fikrga keladi. Biroq Jorulloh fondida saqlanadigan nusxa bilan qiyoslab ko‘rgach, uning “as-Sahoif”ning muqaddimasi emas aksincha, alohida risola ekanligi oydinlashadi.

Tadqiqotchi bir qarashda asar muallifi to‘g‘risidagi ma’lumotga duch kelmasligi mumkin. Biroq Sulaymoniya kutubxonasining Jarulloh fondida saqlanadigan asar nusxasi so‘ngida kelgan “Fozil Samarqandiyga mansub bo‘lgan ushbu risolaning yozilishi ...da tugallandi” اتفق الفراغ في (كتابه هذه الرسالة التي هي للفاضل السمرقندى) mazmundagi jumladan asar qaysi olimga tegishli

ekanligini ilg‘ab olsa bo‘ladi. Iboraga e’tibor qilinsa, unda risola “Fozil Samarqandiy” nomli shaxsga tegishli ekanligi bayon qilingan. Olim yozgan boshqa asarlariga murojaat qilinadigan bo‘lsa, uning bahs-munozara odobi borasida “Adab al-bahs va al-munoza” (Bahs-munozara odobi) nomli asari mavjud. Ma’lumki ushbu asar yuqoridagi ismdan tashqari “Adab al-fozil” (“آداب ”الفاضل“) nomi bilan ham mashhur bo‘lib, ushbu ism odatda Shamsuddin Samarqandiya nisbat berilgan. Ushbu ma’lumotlardan xulosa qilgan holda “ar-Risala ash-sharifa” nomli risolani Shamsuddin Samarqandiy qalamiga mansub deyish to‘g‘ri bo‘ladi.

Sulaymoniya kutubxonasining Laleli fondida № 2432 raqam ostida saqlanadigan bu risola ham majmuadagi boshqa asarlar singari olimning shogirdi G‘oziy Samarqandiy tomonidan o‘qish va solishtirish usulida taqdim etilgan bo‘lib, hijriy 705 yil uning yozib tugatilish sanasi sifatida keltirilgan.

- Yuqoridagi risolaga o‘xshash ammo undan hajm jahitdan bir oz katta bo‘lgan “Risala fi mazhab ahli sunna val jamoa” (Ahli sunna val jamoa borasida risola) nomli risola. Tabaqot va tarojim asarlarida risolaning nomi va uning qaysi muallifga aloqadorligi haqida aniq ma’lumotlar uchramaydi. Biroq qo‘lyozma asarlar kutubxonalarining kataloglari ko‘zdan kechirilganida yuqoridagi nomga yaqin uch nusxa borligi aniqlandi. Ushbu nusxalarni qiyosiy o‘rganish jarayonida risolaning nomi va uning Samarqandiyga tegishli ekanligi kelib chiqdi. Jumladan, AQSHning Princeton kutubxonasida saqlanadigan kitob nusxasi nomi “Bayan mazhab ahli sunna val jamoa” deb qayd etilgan. Risolaning muqaddimasida asar hamda muallifning nomi tilga olinmagan, lekin asar so‘ngida nusxa ko‘chiruvchi tomonidan: “Imom, fozil Shamsuddin Samarqandiyning bu risolasi (...) tugallandi”, deya ifodalangan qayd uning olim qalamiga mansub ekanligini isbotlaydi.

Risolaning Sulaymoniya kutubxonasidagi Hasan Husni Posho kolleksiyasida № 1129 raqam ostida saqlanadigan nusxasi kutubxona katalogida “Risala min al-akoid” deya qayd qilingan, lekin muallifning ismi tilga olinmagan. Nusxa ko‘chiruvchi risolaning muqaddimasida “bu aqoidga oid bir risoladir” degan jumla bilan asarni boshlagan. Nusxada asarning Samarqandiyga tegishli ekanligiga ochiq ishora yo‘q. Ammo asar ikki nusxa bilan qiyoslab ko‘zdan kechirilganida, sanoqli so‘zlardagi tafovutni inobatga olmaganda, o‘xshashlik mavjud ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu o‘xshashlik inobatga olinadigan bo‘lsa, bu risolani Samarqandiy asarining nusxasi deyish mumkin bo‘ladi.

Asarning uchinchi nusxasi Eronning “Majlisi sho‘royi islomiy” (مجلس شورای اسلامی) kutubxonasida № 1117979 raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo‘lyozma nusxasi qaydida asar nomi “Risala fi mazhabi as-sunna val jamoa” sifatida qayd qilingan. Ushbu nusxaning boshi-yu oxirida asar nomi yoki uning muallifi haqida hech qanday ma’lumot uchramaydi. Ammo bu risolan

Samarqandiyning boshqa asarlari bilan bir jamlanmadan o‘rin olgani asarning bilvosita bo‘lsa-da, unga tegishli ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda Princeton kutubxonasida saqlanadigan nusxa so‘ngida kelgan qayddan boshqa risolaning Samarqandiya tegishli ekanligini isbotlaydigan biror dalil topilmaydi. Risolaning aynan Samarqandiya tegishli ekanligini aniqlash maqsadida tadqiqotchilar bu asarni olimning kalom ilmiga doir “as-Sahoif al-ilohiya” va “al-Mo‘taqod” nomli ikki asari bilan qiyoslab ko‘rgan. Mana shu taqqoslash natijasida bu risola ham olimning nomi tilga olingan ikki asari mazmuni bilan mos kelishi isbotlangan[20].

- Faqat bir kutubxona katalogida nomi tilga olingan “Risala fi e’rob kalima at-tavhid” (tavhid kalimasining e’robi to‘g‘risida risola)dir. Ushbu asar Saudiya Arabistonidagi “Qirol Faysal nomli islom ilmlari taddiqot markazi” kutubxonasida № 2034 raqam ostida saqlanadi. Asarning mana shu nomi kutubxona katalogidan boshqa biror o‘rinda uchramaydi. Ammo bir necha kutubxonalarda buning bir oz boshqa nomdagi o‘xhashishi ko‘rish mumkin. Bu ham bo‘lsa, “Risala fi tahqiq kalima ash-shahada” (Shahodat kalimasining tahqiqi borasida risola) asaridir. Samarqandiy qalamiga mansub bo‘lgan ushbu risola, hozirgi kunda dunyoning uch kutubxonasida saqlanadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari markazi kutubxonasida № 3158 raqam ostida, Turkiyaning As’ad Afandi kutubxonasida № 3673 raqam ostida va Gurmaniyadagi davlat kutubxonasida № Petermann II 405 raqam ostida saqlanadigan qo‘lyozmalar allomaning “Risala fi tahqiq kalima ash-shahada” nomli asari ekanligi ko‘rsatadi.

As’ad Afandi nusxasiga e’tibor qilinsa, risola avvalida muallif nomi “Imom, Fozil ... Samarqandiy” ko‘rinishida ifodalangan[20]. Bu esa risolaning Shamsuddin Samarqandiya mansub ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu risolada “shahodat kalima”sining lug‘at va ma’no jihatidan tahqiqi amalga oshirilgan. Risola ikki: “Lug‘aviyyat” (اللغويات) va “Ma’naviyyat” (المعنويات) bo‘limga ajratilgan. Birinchi bo‘lim yetti qismga ajratilgan: Birinchi qismda shahodat kalimasining (ا) so‘zining lug‘aviy ma’nosini haqida tilshunoslik ma’lumotlari bayon qilingan bo‘lsa, ikkinchi qismda (ا) harfi xususida nahv olimlarining qarashlari o‘rganilgan. Uchinchi qismda “Alloh” (الله) va “Iloh” (إله) so‘zлari orasida farqlar, to‘rtinchi qismda (لا إله إلا الله) jumlasidagi “Alloh” (الله) so‘zining qanday harakat bilan o‘qilishi to‘g‘risida bahs yuritilgan. Beshinchi qismda (ا) harfi bilan “... dan tashqari” ma’nosini ifoda qiluvchi “g‘oyr” (غير), “siva” (سوى), “xola” (خل) va “a’da” (عدا) kabi so‘zлari orasidagi farq muhokama qilingan bo‘lsa, oltinchi qismda jumladagi (ا) harfi qo‘llanish, qo‘llanmasligi, yettinchi qismda “Allohdan o‘zga iloh yo‘qligiga guvohlik beraman” (أشهد أن لا إله إلا الله) jumlasining “ashhadu” so‘zi bilan boshlangani xususida so‘z yuritilgan. Ikkinchi bo‘lim ham yuqoridagi singari besh qismga bo‘lib o‘rganilgan. Dastlabki to‘rt qismda shahodat kalimasining mazmun mohiyati, Alloh taoloning

yakka-yu yagona ekanligi va sherigi yo‘qligi haqida babs yuritilgan bo‘lsa, so‘ngi beshinchi qismda Muhammad alayhissalomning payg‘ambar ekanliklari haqidagi dalillar bayon qilingan. Qo‘lyozma so‘ngida yozgan nosix ismi va yozilish sanasi haqida hech qanday ma’lumot keltirilmagan. Risola xos bir nom bilan qayd qilinmagan bo‘lsada, uning mazmuni hamda muqaddimada kelgan “Shahodat kalimasi bu “Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad Uning bandasi va rasuli ekanligiga guvohlik beraman”, deyishimizdir” **كلمة الشهادة وهي قوله اشهد ان لا (الله إلا الله وأشهد ان محمدا عبده ورسوله) فالفت فيها رسالة جامعة لتلك القواعد** degan jumlalar asosida “Risala fi tahqiq kalima ash-shahada” deya nomlash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

XULOSA

Shamsuddin Samarqandiy, asosan, aqliy-mantiqiy sohada faoliyat olib borgan olim hisoblanadi. U tomonidan kalom ilmidan tashqari, mantiq, hisob-kitob, astronomiya va bahsmunozara kabi sohalarda ham yetarli darajada ilmiy merosi mavjud. Ba’zi asarlarini o‘rganish asnosida olimning arab tili (nahv va sarf), fiqh, tafsir singari ilmlarni ham bilishi ma’lum bo‘ladi. Olim tomonidan yozilgan bir qancha asarlar qiyin tilda bo‘lgani bois, aksar zamondoshlar ularni sharhlab berishni so‘ragan. Buning oqibatida yuqorida nomlari tilga olingan sharhlar yuzaga kelgan.

Olim yashagan davr salib yurishlari yuz bergan vaqtarga to‘g‘ri kelgani, dirlarning o‘zaro to‘qnashushi sodir bo‘lgani, insonlar orasida e’tiqoddagi o‘zgarishlar yuzaga chiqqani, g‘arblik faylasuflarning ma’naviy xujumi inobatga olinsa, Samarqandiy musulmonlar e’tiqodini saqlab qolish, ularning Alloh borasidagi tushunchasini mustahkamlash, mantiqiy xurujlarga qarshi turish imkonini yuzaga chiqarish maqsadida aksar asarlarini falsafiy-mantiqiy yondashuv asosida yozganini ko‘rish mumkin.

Olimning bir necha asarlari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, asarlarning ko‘p qismi qo‘lyozma holida saqlanadi. Ularni o‘rganish, tahqiqini amalga oshirgan holda keyingi avlodga yetkazish ilmiy soha vakili zimmasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalilanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. Kashf az-zunun a’n asomiy al-kutub va al-funun. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-a’robiy, 1941.
2. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. Sullam al-vusul ila tobaqot al-fuhul // Akmaliddin Ehson o‘g‘li tahqiqi. – Istanbul: IRCICA, 2010.
3. Muhammad ibn Muhammad Husayniy Zabidiy. Ithaf as-sada al-muttaqin bi sharh ihyo u’lum ad-din // Muhammad Ali tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1994.

4. Abdulg‘ani ibn Ismoil Nobulusiy. al-Hadiqat an-nadiya sharh at-toriqat al-Muhammadiya va as-siyyra al-Ahmadiya // Mahmud Muhammad Nosir tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2011.
5. Abdulg‘ani ibn Ismoil Nobulusiy. Roihatu al-janna sharh izoat ad-dujunna fi aqoid ahli as-sunna // Ahmad Farid Mazidiy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2007.
6. Shamsuddin Samarqandiy. al-Ma’orif fi sharh as-sahoif. Laleli qo‘lyozmasi, R: 2432.
7. Shamsuddin Samarqandiy. Al-Ma’orif fi sharh as-sahoif. O‘zR FA SHI qo‘lyozmasi, R: A827.
8. Shamsuddin Samarqandiy. al-Mo‘taqod. Atif Afandi qo‘lyozmasi, R: 1369.
9. Shamsuddin Samarqandiy. al-Mo‘taqod. Jorulloh qo‘lyozmasi, R: 1838.
10. Shamsuddin Samarqandiy. al-Mo‘taqod. Laleli qo‘lyozmasi, R: 2432.
11. Shamsuddin Samarqandiy. Al-Anvar al-ilohiya. Laleli qo‘lyozmasi, R: 2432.
12. Shamsuddin Samarqandiy. Al-Anvar al-ilohiya. Murad Mulla qo‘lyozmasi, R: 1394.
13. Shamsuddin Samarqandiy. Sharhu al-lam’at ar-robi’a min kitab al-anvar al-ilohiya. Laleli qo‘lyozmasi, R: 2432.
14. Shamsuddin Samarqandiy. Ar-Risala ash-sharifa. Laleli qo‘lyozmasi, R: 2432.
15. Shamsuddin Samarqandiy. Ar-Risala ash-sharifa. Jorulloh qo‘lyozmasi, R: 1247.
16. Shamsuddin Samarqandiy. Ilm al-afaq va al-anfus // G‘ulomrizo Dodxoh tahqiqi. – Kaliforniya: Mazda nashriyoti, 2014.
17. Shamsuddin Samarqandiy. Adab al-fazil. Yozma Bag‘ishlar qo‘lyozmasi, R: 4030.
18. Shamsuddin Samarqandiy. Risala fi mazhab ahli sunna val jamoa. Princeton qo‘lyozmasi, R: 1129.
19. Shamsuddin Samarqandiy. Risala fi mazhab ahli sunna val jamoa. Hasan Husni Posho qo‘lyozmasi, R: 982.
20. Shamsuddin Samarqandiy. Risala fi mazhab ahli sunna val jamoa. Majlisi sho‘royi islomiy qo‘lyozmasi, R: 1117979.
21. Shamsuddin Samarqandiy. Risala fi tahqiq kalima ash-shahada. As’ad Afandi qo‘lyozmasi, R: 3673.